



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

MUXITDIN RAXIMOV UY-MUZEYI VA KULOLCHILIK USTAXONASINING TASHKIL ETILISH TARIXI

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Muzeysunoslik kafedrasini mudiri,
san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek kulolchilik maktabining yetuk namoyandasi Muxitdin Raximovning uy-muzei va kulolchilik ustaxonasining tashkil topish tarixi o'rganiladi. 1994-yilda asos solingan mazkur uy-muzeining ekspozitsion tuzilishi, usta ijodiy merosining saqlanishi hamda Raximovlar sulolasining kulolchilik an'analarini davom ettirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Muxitdin Raximov, uy-muzei, kulolchilik ustaxonasi, Raximovlar sulolasi, o'zbek amaliy san'ati, an'anaviy kulolchilik texnologiyalari, ustoz-shogird maktabi, madaniy merosni asrash, ekspozitsiya.

Аннотация: В статье изучается история создания домашнего музея и гончарной мастерской одного из видных представителей узбекской школы керамики - Мухитдина Рахимова. Анализируется экспозиционная структура музея, основанного в 1994 году, вопросы сохранения творческого наследия мастера, а также роль династии Рахимовых в продолжении традиций национального гончарного искусства.

Ключевые слова: Мухитдин Рахимов, дом-музей, гончарная мастерская, династия Рахимовых, узбекское прикладное искусство, традиционные технологии керамики, школа «устоз-шогирд», сохранение культурного наследия, экспозиция..

Abstract: The article examines the history of the establishment of the house-museum and pottery workshop of Muxitdin Rakhimov, one of the prominent representatives of the Uzbek school of ceramics. It analyzes the exhibition structure of the museum founded in 1994, the preservation of the master's artistic legacy, and the role of the Rakhimov dynasty in continuing the traditions of national pottery art.

Keywords: Muxitdin Rakhimov, house-museum, pottery workshop, Rakhimov dynasty, Uzbek applied arts, traditional ceramic technologies, ustoz-shogird (master-apprentice) school, cultural heritage preservation, exhibition.

So'nggi yillarda mamlakatimizda shaxsiy mablag'lar asosida muzeylar tashkil etish jarayonining keng ommalashgani kuzatiladi. Bu holat fuqarolarning madaniy merosga nisbatan mas'uliyatini oshirish, jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning amaliy natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ana shunday jamoatchilik muzeylari ichida ilk xususiy tashabbus asosida vujudga kelgan muassasalardan biri usta-kulol, O'zbekiston xalq rassomi Muxitdin Raximovning uy-muzeidir.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Muxitdin Raximov uy-muzeyi 1994-yilda tashkil etilgan bo'lib, usta-kulolning umrining so'nggi yillarida faol ijod qilgan va yashagan maskani - hozirgi Odil Muxtorov ko'chasi 25-uy manzilida joylashgan. Mazkur uy-muzey o'z mohiyati bilan nafaqat san'atkorning shaxsiy hayoti va ijodiy merosini aks ettiruvchi xotira maskani, balki XX asr o'zbek kulolchilik maktabi taraqqiyotini tadqiq etishda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ushbu uyda usta merosining davomchilari - O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Akbar Raximov hamda iste'dodli yosh kulol, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Alisher Raximov o'z oilalari bilan istiqomat qilib kelmoqda. Bu jihat muzeyning yashovchanligini ta'minlab, Raximovlar sulolasining kulolchilik an'analari izchil davom ettirishga imkon yaratmoqda.

Uy-muzeyning ekspozitsion tuzilmasi shu yo'nalishdagi boshqa xonadon-muzeylarga xos holda ikki asosiy bo'limdan iborat. Ikki qavatli muzey binosida Raximovlar sulolasi vakillari tomonidan yaratilgan serqirra kulolchilik namunalaridan iborat ekspozitsiya joylashtirilgan. Asarlarning tematik guruhlariga ajratilgan holda taqdim etilishi sulolaning tarixiy, estetik va texnologik izlanishlarini tizimli o'rganishga imkon beradi.

Muzey tarkibida, ayniqsa, Muxitdin Raximovning mo'jaz ustaxonasidan iborat bo'lgan yodgorlik qismi alohida qiymatga ega. U dastlabki holatiga yaqin tarzda saqlab qolingan bo'lib, usta ijod jarayonining tabiiy muhiti, mehnat qurollari, buyumlarni shakllantirish va bezash texnikalarini ko'rgazmali tarzda ochib beradi. Mazkur yodgorlik qismi o'zbek kulolchilik san'ati tarixida individual ustaxona madaniyatini o'rganish uchun noyob empirik material vazifasini bajaradi.

Muxitdin Raximov ijodiy faoliyati davomida O'zbekistonning eng qadimgi kulolchilik markazlari kulolchilik san'ati an'analari va usullarini puxta o'rgangan. U hayotining ko'p yillarini arxeologlarning tadqiqotlariga tayanib, Temuriylar davri va Kushon shohligi kulolchilik san'atini o'rganishga bag'ishladi.

Usto Muxitdin bo'sh vaqtini loy bilan ishlashga va asarlarini bo'yashga bag'ishladi. U Kushon va Temuriylar davri, Toshkent keramika maktabi texnikasidan foydalangan holda o'nlab ajoyib asarlarni yaratgan, ularning aksariyati bugungi kunda dunyodagi eng yirik va mashhur muzeylarda saqlanmoqda (Ermitaj — S. Peterburg, Sharq san'at muzeyi — Moskva.)³¹.

M.Raximov O'rta asrlar me'moriy yodgorliklarini tiklash bo'yicha ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda (Tillakori, Ulug'bek madrasalari va boshqalar) ishtirok etgan. Me'moriy toshtaxta-koshinlar tayyorlanish sir-asrorlarini o'zlashtirgan Muxitdin Raximov Qo'qondagi Xudoyorxon saroyida olib borilayotgan ta'mirlash ishlari uchun 36000 ta rangdor koshin tayyorlab bergan. Ustaning Toshkentdagi ijod davri 1932-yildan xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi tashkil etilishida qatnashish bilan boshlanadi. 1933-1934-yillarda Muxitdin Raximov Xalq xo'jaligi muzeyi yangi binosini qurilishida koshinkorlik ishlariga rahbarlik qila boshlaydi.

³¹ <https://uzor.uz/narodnie-amesla/sokrovisha-muzeev-ru/dom-muzej-im-muhit-dina-Raximov-a/>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Ikkinchi jahon urushi rassomning ijodiy va pedagogik faoliyatini bir muddat to'xtatib qo'yadi. 1957-yildan umriniig oxirigacha usta O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy-tekshirish institutiniig "Dekorativ-amaliy san'at" bo'limida ilmiy xodim bo'lib ishlagan.

Shu yillar mobaynida u O'zbekiston kulolchilik maktablarining alohida xususiyatlarini batafsil o'rganadi.

Qadimiy shaharlarni (Afrosiyob, Axsikent, Dalvarzintepa, Xotinrabot va boshqalar) qazish chog'ida arxeologlar tomonidan topilgan antik va o'rta asrlarga oid kulolchilik ashyolari asosida ularning shakl va bo'laklarini tiklash bo'yicha M.Raximov tomonidan olib borilgan tajribalar g'oyat noyob va samarali bo'ldi³².

Usta o'zining nihoyatda boy ilmiy-ijodiy tajribasini yoshlarga o'rgatdi. Muhit Raximov ijodi O'zbekiston davlat san'at muzeyi va Toshkentdagi O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi fondlarida tizimlashtirilgan. Ularda asosan ustaning 1947-1985 yillarga oid ishlari jamlangan.

Raximovlar oilasining sa'y – harakatlari bilan 2006-yilda Toshkentda Usto-shogird kulolchilik ustaxonasi maktabi ochildi. Maktabga kirish uchun maxsus ta'lim kerak emas va yoshi ham cheklanmagan, faqat maqsadga erishish uchun iste'dod, istak va qat'iyat kerak.

Bugungi kunda ustalar Akbar va Alisher Raximovlar maktabning asosiy o'qituvchilari bo'lib, o'z bilimlarini boshlang'ich keramika ustalariga yetkazishga harakat qilmoqdalar³³.

Kulolchilik ustaxonasi Toshkent shahar Shayxontohur tumani, Ko'kcha Darvoza, 15-uyda joylashgan. Bino ikki qavatdan iborat bo'lib, 1-qavatida ko'rgazma zali, ikkinchi qavatida 4 xonadan iborat kulolchilik ustaxonasi joylashgan.

1-qavatdagi ko'rgazma zalida M.Raximovning 300 ga yaqin, Akbar va Alisher Raximovlarning 1000 ga yaqin kulolchilik buyumlari saqlanadi. Shuningdek, ustaxonada M.Raximovga tegishli 4000 ta kitob mavjud bo'lgan kutubxona bor.

Ko'rgazma zalida Raximovlar sulolasining davomchilari tomonidan tez-tez ko'rgazmalar tashkil etib turiladi. "Ming bir sham", "Anor-jannat timsoli", "Bodom rangi", "Qirq go'zal", "Osmon va Yerni tutashtirgan daraxt" kabi loyihalar katta muvaffaqiyat bilan o'tkazilgan. Mohir ustalar xalqining o'zlarini ilhomlantirgan she'riyatga, afsonalarga, ma'naviy an'alariga, jahon mifologiyasi va folkloriga murojaat etib, barcha loyihalarning qiziqarli, jozibali bo'lishiga intilgan, ularni mazmuni va shaklini boyitgan.

Shu kabi ko'rgazmalardan biri 2022-yili tashkil etilgan "Qush qalbi" ko'rgazmasidir. Rahimovlarning har biri ko'rgazmasi - bu o'zbek kulolchilik san'atining o'ziga xos antalogiyasidir: Afrosiyobning pardozlangan sopol idishlari: Somoniylar, Kushon davri va Temuriylar davri ohanglari asosida: XVIII-XIX asrlardagi Toshkent maktabi an'analari: so'zana va qoya tosh bitiklari namunalari asosida yaratilgan asarlar: quyma, "sahroviiy" va "ignasimon" gulli idishlar-bularning barchasi loyihaning yaxlit "Qush qalbi" konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirilgan.

³² Фатхуллаев Р. Мухит Рахимов уй-музеи // Мозийдан садо. - Тошкент. 2005 №2. – Б.8.

³³ <https://uzor.uz/narodnie-amesla/sokrovisha-muzeev-ru/dom-muzej-im-muhitdina-rahimova/>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Ekspozitsiyadan eng turli tuman shakldagi, naqshli va rangli sopol idishlar -500 dan ortiq eksponatlar o'rin olgan. Usta Rahimovlar har gal mavzuga yangicha yondashish va obrazli ifodalash orqali boy tasavvur olamini namoyish etishadi. Ular yaratgan kulolchilik san'ati olami naqshlarining uyg'unligi, ranglarining jilosi bilan tomoshabinni maftun etadi.

Rahimovlar ijodidagi sevimli obraz-qushlar: afsonaviy Sirin va Semurg' qushlari, mag'rur tovuqlar va Hudhud, kamtarin laylaklar, qaldirg'ochlar va bulbullar yaqqol namoyon bo'ladigan istioraviy ma'noga ega bo'lib, ular Sharq madaniyatida keng tarqalgan an'anaviy obrazlarga yaqin turadi.

Rahimovlar yaratgan sopol buyumlar nafisligi, shakllari va naqshlarining yuksak did bilan yaratilgani, shuningdek kulollarning yuqori darajali mahorati bilan ajralib turadi. Yangi loyihaga qo'l urish asnosida ustalar mo'yqalam bilan ishlash, pardoqlangan, quyma, sirsiz, ignasimon texnika bilan ishlash usullarini takomillashtirib boradi, bunda sirostdi va sir usti naqshlarining turli texnologiyalaridan foydalanadi.

Afsonaviy Usta Muhiddin Rahimovning o'g'li, nevarasi va evarasi ustaning an'alarini davom ettirib, ko'pincha mamlakat bo'ylab sayyohat qiladi, material to'playdi, mahalliy kulolchilik maktablarining naqshlari, usullari, texnologiyalarini o'rganadi va o'z ijodida ulardan ehtiyotkorona foydalanadi. Rahimovlar sulolasi tomonidan to'plangan aynan ushbu ulkan hayotiy va ijodiy tajriba loyiha ekspozitsiyasining markaziy mavzusiga aylangan mag'rur va ozod Qush qiyofasida gavdalangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ma'lumki, Sharqda barcha davrlarda usta hunarmandlar o'z ijodida bitta mashhur hadisga murojaat qilgan: "Jannatga qalbi qushlarga o'xshash odamlar kiradi"³⁴.

Muxitdin Raximov uy-muzeyi va kulolchilik ustaxonasining tashkil etilishi o'zbek kulolchilik maktabi tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida muhimdir. Mazkur uy-muzey o'zbek amaliy san'ati, xususan kulolchilik san'atining evolyutsiyasini tadqiq etishda beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фатхуллаев Р. Муҳит Раҳимов уй-музейи // Мозийдан садо. - Тошкент. 2005 №2. – Б.8.
2. Қуш қалби: альбом-каталог – Тошкент: 2022, - Б.2-3.
3. <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/sokrovisha-muzeev-ru/dom-muzej-im-mu> hitdina-Raximov a/
4. <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/sokrovisha-muzeev-ru/dom-muzej-im-mu> hitdina-rahimova/

³⁴ Қуш қалби: альбом-каталог – Тошкент: 2022, - Б.2-3.